TEXNIK TALABLAR

Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda moliyalashtirilayotgan hamda Konrad Adenauer jamg‘armasi va “Yuksalish” harakati tomonidan birgalikda amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda inklyuziv jamiyatni rivojlantirish uchun fuqarolik jamiyati imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida tashkil etiladigan 2 kunlik tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha

TEXNIK TALABLAR

1. Umumiy ma’lumot

Forum “**O‘zbekistonda inklyuziv jamiyatni rivojlantirish uchun fuqarolik jamiyati imkoniyatlarini kengaytirish**” loyihasi doirasida tashkil etilmoqda. Tadbirda Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 45 nafar ishtirokchi, 6 nafar ekspert, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Farg‘ona viloyatidan fuqarolik jamiyati tashkilotlari vakillari (onlayn formatda) ishtirok etadi.

2. Vaqt va joy

Trening sanasi: 2026-yil 15-yanvardan 16-yanvargacha.

Davomiyligi: 2 kun.

Ekspertlar va loyiha jamoasining kelish va ketish vaqti: kelish — 2026-yil 14-yanvar (kechqurun), ketish — 2026-yil 16-yanvar (kechqurun).

Joy: Nukus shahridagi 3 yoki 4 yulduzli mehmonxona (konferens-zaliga ega bo‘lgan).

3. Ishtirokchilar

Ishtirokchilar soni: 45 kishi

Ekspertlar soni: 6 kishi

Tashkilotchilar: 8 kishi

Barcha ishtirokchilarning umumiy soni: 59 kishi

4. Joylashtirish va shart-sharoitlar

- 3 nafar ekspert va loyihaning 7 nafar xodimi uchun xonalar (single room/bir kishilik xonalar).
- Har bir xonada quyidagilar bo‘lishi shart: konditsioner, dush, Wi-Fi, fen, ichimlik suvi va gigiyenik vositalar.
- Har kuni tozalikni ta’minlash (yig‘ishtirish).

5. Ovqatlanish

Barcha ishtirokchilar uchun:

Tushlik – mehmonxonada 59 nafar ishtirokchi uchun (shved stoli yoki porsiyali menyu) 2 marta, 3 xil taomdan iborat (salat, asosiy taom, desert/ichimlik);

Kofe-breyk – birinchi kuni welcome coffe va har kuni 1 mahaldan (2 ta), (choy, kofe, suv, pechenye, mevalar, yengil gazaklar).

6. Konferens-zal va jihozlar

- 1 ta keng konferens-zal (bir vaqtning o‘zida 50 ishtirokchini sig‘dira oladigan). Ishtirokchilar orasida nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkinligi sababli, binoning 1-qavatida joylashgan zalga alohida ustunlik beriladi.
- Spikerlar taqdimoti uchun proyektor yoki ekran.
- Noutbuk (1 dona).
- Ovoz tizimi va mikrofonlar (2 ta qo‘l mikrofoni va 1 ta garnitura; ishtirokchilar uchun stol mikrofonlari bo‘lishi ma’qullanadi).
- Flipchart, markerlar va qog‘oz.
- Wi-Fi internet (barqaror).
- Konditsioner va har bir qatorda elektr rozetkalari.

8. Qo‘shimcha talablar

- Mehmonxona yoki tadbir o‘tkaziladigan joy markaziy qismda, xavfsiz va oson boriladigan hududda joylashgan bo‘lishi kerak.
- Barcha xizmatlar uchun hisob-fakturalar (invoice) taqdim etilishi shart.
- Yetkazib beruvchi tashkilot xizmatlarning to‘liq logistikasi va tayyorgarligini ta’minlashi kerak.

9. Moliyaviy taklif formati

Taklifda quyidagilar alohida ko‘rsatilishi kerak:

- Yashash va ovqatlanish narxi (1 kishi/1 kun);
- Konferens-zal ijarasi (1 kun);
- Kofe-breyklar narxi.
- **Barcha narxlar QQS (НДС)ni inobatga olgan holda ko‘rsatilishi shart.**